



UDK: 378.147:61(043.3)

Shoira DALIMOVA,
*Andijon Davlat tibbiyot instituti
Terapevtik stomatologiya kafedrasida assistenti.*

Andijon davlat tibbiyot instituti professori A.A.Ismanova taqrizi asosida

TIBBIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING MOHIYATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Аннотация

Mazkur maqolada tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiya tushunchasi, uning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik mexanizmlar yoritilgan. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, taqqoslash va pedagogik kuzatuv metodlari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuvni tizimli joriy etish talabalarni nafaqat bilim, balki kasbiy ko'nikma va qadriyatlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Tibbiy ta'lim, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, rivojlanish bosqichlari.

СУЩНОСТЬ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация

В статье рассматриваются сущность и этапы развития компетентностного подхода в медицинском образовании. Раскрыты теоретические и практические основы понятия компетентности, а также педагогические механизмы, применяемые в учебном процессе. В исследовании использованы методы анализа литературы, сравнительного подхода и педагогического наблюдения. Результаты показали, что системное внедрение компетентностного подхода способствует формированию у студентов не только знаний, но и профессиональных навыков и ценностей.

Ключевые слова: Медицинское образование, компетентность, компетентностный подход, профессиональная подготовка, этапы развития.

THE ESSENCE AND DEVELOPMENT STAGES OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN MEDICAL EDUCATION.

Annotation

This article analyzes the essence and development stages of the competency-based approach in medical education. The theoretical and practical foundations of competency, as well as pedagogical mechanisms applied in the learning process, are discussed. The study employed literature review, comparative analysis, and pedagogical observation methods. The findings indicate that the systematic implementation of a competency-based approach contributes to the formation of not only knowledge but also professional skills and values among students.

Key words: Medical education, competence, competency-based approach, professional training, development stages.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida tibbiy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — kelajak shifokorlarini nafaqat nazariy bilimlarga, balki mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassis sifatida shakllantirishdir [1]. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ushbu jarayonning asosiy omillaridan biri bo'lib, u shifokorlarni sog'lomlashtirish, tashxislash, davolash va profilaktika ishlarini samarali amalga oshirishga tayyorlashda yangi metodologik asos yaratmoqda [3].

An'anaviy tibbiy ta'limda ko'proq bilimlarni o'zlashtirishga urg'u berilgan bo'lsa, kompetensiyaviy yondashuvda bilim, ko'nikma va malakalar tizimli integratsiyasi asosida shaxsiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish markaziy o'ringa chiqadi [4]. Bu yondashuv tibbiyot talabalari o'z faoliyatida nazariy tushunchalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga, klinik vaziyatlarni tahlil etishga, mustaqil qaror qabul qilishga va kasbiy mas'uliyatni chuqur his qilishga o'rgatadi [5].

So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki

rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tobora ortib bormoqda. Chunki sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi ko'p jihatdan shifokorlarning kasbiy kompetensiyasiga bog'liqdir [7]. Kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ta'lim jarayonini faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan chegaralab qo'ymasdan, balki klinik amaliyot, ilmiy tadqiqotlar, muammoli vaziyatlar tahlili va interfaol uslublar orqali chuqurlashtirishni talab qiladi [8].

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv talabalarining shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayonda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, tibbiy etika va deontologiya tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Shunday qilib, tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv nafaqat bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki talabalarni hayotiy faoliyatga tayyorlaydi, ularning intellektual, ijtimoiy va kasbiy salohiyatini kengaytiradi [10].

Natijada, kompetensiyaviy yondashuvni bosqichma-bosqich rivojlantirish, uni o'quv jarayoniga tizimli joriy etish, metodik ta'minotini takomillashtirish va xalqaro ta'lim tajribasi

bilan uyg'unlashtirish tibbiy ta'limning sifatini yangi bosqichga olib chiqadi [11].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xalqaro tadqiqotlarda Frenk J. [2], Harden R.M. [3], Norman G. va Schmidt H. [4] tomonidan kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Ularning ishlari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy ta'lim metodlari talabalarni faqat nazariy bilimga emas, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kasbiy mas'uliyatga yo'naltiradi. O'zbekistonlik olimlardan Qodirov F.A. va Raxmatova S.S. [5] kompetensiyaviy yondashuvning tibbiy ta'limdagi o'ziga xos jihatlari tahlil qilib, uning amaliyotga joriy etilishi samaradorligini ilmiy asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tibbiy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini ochib berish va uning rivojlanish bosqichlarini aniqlash maqsad qilingan bo'lib, metodologiya uzluksiz ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, xalqaro tajriba va milliy ta'lim siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv qo'llanilib, pedagogik, psixologik hamda tibbiy-metodik tamoyillar uyg'unlashtirildi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvni faqat nazariy konsepsiya sifatida emas, balki amaliy jihatdan tatbiq etiladigan pedagogik model sifatida baholash imkonini berdi.

Birinchida bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar va ta'lim dasturlari tahlil qilindi. Shu jumladan, kompetensiyaviy yondashuvning konseptual asoslari, uning jahon tibbiy ta'limida shakllanish va rivojlanish jarayonlari o'rganildi. Bunda tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan yetakchi xorijiy tadqiqotchilar (J. Spencer, R. Harden, J. Frank, R. Epstein va boshqalar) hamda mahalliy olimlar (D.D. Sharipova, N.A. Muslimaeva, Q.T. Olimov) tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar solishtirildi va umumlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda tibbiy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy va innovatsion yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Bu jarayonda o'quv jarayonining mazmuni, talabalarining o'zlashtirish darajasi, kasbiy ko'nikmalarning shakllanishi va ularni amaliyotga tatbiq etish ko'rsatkichlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil natijasida

kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari, jumladan, talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, klinik vaziyatlarni tahlil qilish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va tibbiy deontologiyaga amal qilish kabi jihatlari alohida qayd etildi.

Uchinchi bosqichda empirik tadqiqot ishlari tashkil etildi. Bunda pedagogik kuzatuv, test sinovlari, so'rovnomalar va suhbat metodlari qo'llanildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida turli bosqichlarda ta'lim olayotgan tibbiyot yo'nalishidagi talabalar va o'qituvchilarning fikrlari o'rganildi. Shu orqali talabalarining kompetensiyaviy rivojlanish dinamikasi aniqlanib, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun maxsus diagnostik mezonlar ishlab chiqildi. Shuningdek, o'quv jarayonida qo'llanilgan interfaol metodlar, kreativ yondashuvlar va raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi tahlil qilindi.

To'rtinchi bosqichda olingan natijalar statistik va sifat tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Statistik tahlilda talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, kompetensiya darajasining shakllanish bosqichlari va ularning amaliy tayyorgarlik jarayonidagi o'zgarishlari aniqlab borildi. Sifat tahlil esa talabalarining shaxsiy rivojlanishi, kasbiy mas'uliyati va kreativ tafakkur ko'nikmalari bo'yicha chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari tibbiy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Empirik tadqiqot bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida ta'lim jarayoni turli metodlar asosida tashkil etildi: nazorat guruhida an'anaviy ma'ruza va seminarlar, tajriba guruhida esa kompetensiyaga asoslangan interfaol va kreativ metodlar qo'llandi. O'quv jarayonining samaradorligini baholashda talabalarining bilim, amaliy ko'nikma va motivatsion rivojlanish darajasi uchta asosiy mezon – kognitiv, operatsion-amaliy va motivatsion-shaxsiy kompetensiya o'lchovlari asosida tahlil qilindi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida ta'lim olgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishdilar. Ayniqsa, amaliy ko'nikmalarni qo'llash va kreativ yondashuv orqali mustaqil qaror qabul qilish darajasida sezilarli farq kuzatildi.

1-jadval. Talabalarining kompetensiyaviy rivojlanish ko'rsatkichlari (foizda)

Kompetensiya o'lchovi	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)	Farq (%)	p-qiymat
Kognitiv (bilim)	63.2	81.4	+18.2	<0.01
Operatsion-amaliy (ko'nikma)	59.7	80.2	+20.5	<0.01
Motivatsion-shaxsiy (qiziqish, mas'uliyat)	65.1	84.6	+19.5	<0.01
Umumiy kompetensiya darajasi	62.7	82.1	+19.4	<0.01

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi talabalar umumiy kompetensiya darajasi bo'yicha 19,4% yuqori natija ko'rsatdilar. Ayniqsa, operatsion-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda (20,5% farq) sezilarli ustunlik qayd etildi. Bu esa tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Shuningdek, talabalardan olingan sifatli ma'lumotlar ham tajriba guruhida motivatsiya darajasining yuqoriligini tasdiqladi. Ular kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish, klinik vaziyatlarni tahlil etish, bemor bilan muloqot o'rnatishda ancha ishonchli yondashuvni namoyon etdilar.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tibbiy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish talabalar bilim, ko'nikma va kasbiy qadriyatlarini kompleks rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. An'anaviy o'qitish usullariga nisbatan,

kompetensiyaga asoslangan ta'lim talabalarining nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy faoliyatga tayyorligini ham sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, operatsion-amaliy ko'nikmalar va motivatsion-shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik kuzatildi. Bu esa bo'lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini hamda klinik muammolarni ijodiy hal qilish malakasini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari tibbiy ta'limda interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va kreativ yondashuvlardan foydalanishning dolzarbligini tasdiqladi. Bunday yondashuv talabalarda bemorga individual yondashuvni shakllantirish, profilaktik choralarni samarali qo'llash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha mustahkam kasbiy kompetensiyani hosil qiladi.

Olingan natijalarga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

tibbiy oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalari va dasturlarida kompetensiyaviy yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash;

o'qitish jarayoniga interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar asosida ta'lim, simulyatsiya texnologiyalari va loyiha ishlari kabi metodlarni keng joriy etish;

talabalarning mustaqil ta'limini kuchaytirish, ularni kasbiy faoliyatga yaqinlashtiruvchi amaliy topshiriqlar ulushini oshirish;

professor-o'qituvchilar tarkibini kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar bo'yicha muntazam malaka oshirish;

ta'lim jarayonida talabalarning motivatsiya va kasbiy qadriyatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish.

Shunday qilib, tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni bosqichma-bosqich amalga oshirish nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki sog'liqni saqlash tizimida yuqori malakali, profilaktik faoliyatga tayyor, zamonaviy shifokorlarni yetishtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Spencer J., Jordan R. Learner centred approaches in medical education. *BMJ*. 1999;318:1280–1283.
2. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. *Med Teach*. 2007;29(7):625–629.
3. Frank J.R. et al. Competency-based medical education: theory to practice. *Med Teach*. 2010;32(8):638–645.
4. Albanese M.A., Mitchell S. Problem-based learning: a review of literature on its outcomes and implementation issues. *Acad Med*. 1993;68:52–81.
5. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence. *JAMA*. 2002;287(2):226–235.
6. ten Cate O. Competency-based education, entrustable professional activities, and the power of language. *J Grad Med Educ*. 2013;5(1):6–7.
7. Holmboe E.S., Sherbino J., Long D.M., Swing S.R., Frank J.R. The role of assessment in competency-based medical education. *Med Teach*. 2010;32:676–682.
8. Carraccio C., Wolfsthal S.D., Englander R., Ferentz K., Martin C. Shifting paradigms: from Flexner to competencies. *Acad Med*. 2002;77:361–367.
9. Ismanova A.A. Xolmamatova U. S. (2025). application of information technologies in infectious diseases: a modern approach. *modern education and development*. 77-84
10. Ismanova, a. (2024). Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning pedagogik tahlili. *news of uzmu journal*, 1(1.4), 104-108.
11. Mukhammadjonovich, R. M., Abdulkhamidovna, I. A., Abdumukhtorovich, G. S., Abdusaitovich, T. O., & Sobirovich, K. S. (2023). Use of new innovative methods in teaching the science of information technologies and modeling of technological processes. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 1458-1463.